



FARG‘ONA-TOSHKENT MAQOM YO‘LLARIDAN „TARONAI DUGOH HUSAYNI” DILAFGOR G‘AZALI.

Andijon davlat pedagogika instituti

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san’at” fakulteti

“musiq ta’lim” yo’nalishi 1-bosqich 101-guruh talabasi

Mamatqulova Muslimaxon Sharifbek qizi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maqom san'ati ,Farğona -Toshkent maqom yōllari hamda Taronayi dugoh husayniy maqomi haqida sōz yuritilgan.
Kalit so ‘z: Maqom, Dugoh

Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari — Toshkent va Farg‘ona vodiysi (Qo‘qon, Namangan, Andijon, Farg‘ona, Marg‘ilon, Quva va boshqalar) musiqa amaliyotida yuzaga kelgan maqom namunalarining umumlashma nomi. Shashmaqom va Xorazm maqomlaridan farqli o‘laroq alohida-alohida cholg‘u va ashula yo‘llaridan iborat. Jumladan, cholg‘u yo‘llari "Nasrullo I-V", "Munojot I-V", "Ajam va taronalari", "Miskin I-V", "Segoh I-III", "Sayqal I-II", "Mirzadavlat I-II", "Cho‘li Iroq", "Chorgoh", "Surnay Iroqi", "Surnay Dugohi" "Surnay Ushshog‘i" kabilar mashhur. Ashula yo‘llari alohida bir qismli ("Segoh, "Toshkent" irog‘i" kabi) namunalardan tortib keng ko‘lamli turkumlardan tashkil topgan. Ayniqsa, besh qismli "Chorgoh", "Bayot", "Bayoti Sheroziy", "Gulyor*Shahnoz" va yetti qismli "Dugoh-Husayn" ashula yo‘llari ommalashgan. Ular mumtoz she’riyat (Sakkokiy, Navoiy, Bobur, Uvaysiy, Furqat, Muqimiy va boshqalar) namunalari asosida o‘qiladi. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarining shakllanish ildizlari o‘rta asrlarda mashhur bo‘lgan "O‘n ikki maqom" tizimi va undan ham oldinroq mavjud turkumli asarlarga borib taqaladi. "Yo‘llari" atamasi ham shunga ishora etadi. Zero "maqom" atamasidan avvalroq musiqa ilmi amaliyotida "yo‘l" ma’nosidagi "roh", "tariqa", "ravashin" kabi



tushunchalar keng qo'llanib kelingan. Shashmaqomdan farqli ravishda Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari nafaqat xon saroylarida, balki xalq hayoti bilan bog'liq turli vaziyat va sharoitlarda ham mudom ijro etilgan. Masalan, surnay yo'llari xalq tomosha va bayramlarida, dorbozlar o'yini va to'y bazmlarida, dutor, tanbur, g'ijjak ijrolari hamda ashula yo'llari uy sharoitlarida o'tkaziladigan turli yig'in va majlislarda namoyon bo'lgan. Ayni paytda, bu maqomlarda Farg'ona-Toshkent musiqa uslubiga xos yalla, ashula, katta ashula janrlarining xususiyatlari o'z aksini topgan. Bu holat ularning musiqiy tili xalqchil va nisbatan ommaviy ekanligi, xalq orasida mashhur bo'lishi sabablaridan biridir.

Abdulboriy Shermuhammad Hoji o'g'li (Dilafgor) XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asrning birinchi yarmida Toshkentga yaqin Pskent shahrida tug'ilib, yashab, o'z davrining maktab va madrasasida tahsil olib, jo'shqin iste'dodi bilan zamondosh muxlislarining ehtiromiga sazovor bo'lgan shoirlardandir. Dilafgor, xususan, Andijonda yashab, madrasada o'qigan vaqtida Sa'diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Kamol Xo'jandiy, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bedil va Fuzuliylarning she'riyatidan bahra olgan.

Umrining yetuk qismini ilmu ma'rifat tarqatish yo'lida, ya'ni kitob magazinida mudirlik vazifasini ado etishda sarf etadi. Uning «Gulshani Dilafgor» nomli majmuasi 1914 yilda Toshkentda, matbai G'ulomiyada bosilgan. 1916 yilda qayta nashr etilgan. Ushbu to'plamga 23 g'azal, 20 muxammas (1 muvashshah), 3 musaddas (1 tarje'band), 1 chiston (topishmoq) va 2 fard kiritilgan.

Dilafgorning 8 g'azal, 2 muxammasi Abdurashid Abdug'afurov tomonidan «O'zbek adabiyoti»ning 4-tom, 1-kitobiga kiritilgan.



Dugohi husayniy, Dugoh Husayn — 1) Oʻrta asr Oʻn ikki maqom tizimida Husayniy maqomining Dugoh shoʻʻbasi; 2) Buxoro Shashmaqomda Dugoh maqomining nasr yoʻlidagi shoʻʻbalaridan biri; 3) Toshkent — Fargʻona maqom yoʻmaridagi turkum. U parda tuzilishi hamda kuy-ohanglar mushtarakligida turli vazn-usullar negizida 7 qismdan iborat turkumni hosil qiladi. Maqomlarning yirik yoʻnalishi Fargʻona va Toshkent vohalari bilan bogʻliq. Bu joylarda qaror topgan klassik musiqa tizimi umumlashtirilib “Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllari” deb yuritiladi. 20-30 yillarda ustozlar mazkur tizimga nisbatan "Shashmaqom", "Olti yarim maqom"ga oʻxshatib, "Chormaqom" (yaʼni toʻrt maqom) atamasini ham qoʻllaganlar va uning tarkibida "Bayot", "Dugoh Husayniy", "Chorgoh" va "Gulyor-Shahnoz" nomlari bilan yuritiladigan birikmalarni tushunganlar. Fargʻona-Toshkent Chormaqomi, Shashmaqom va Xorazm maqomlaridan farqli oʻlaroq, qismlari bir-biriga vobasta qilingan turkum shaklida emas, balki umumiy nom ostida keladigan mustaqil kuy yoʻllari tarzida namoyon boʻladi. Shunga koʻra, ular “Dugoh I”, “Dugoh II”, "Dugoh III" yoki "Bayot I", "Bayot II", "Bayot III" kabi tartib sonlari bilan belgilanadi. Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllarining kelib chiqishi va tarkibiy xususiyatlari ilmiy jihatdan ham kam oʻrganilgan. Ushbu masala yuzasidan I. Rajabovning “Maqomlar masalasiga doir” kitobining maxsus bobi *ишончли* maʼlumotlardan hisoblanadi. Unda Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllari maqomot tizimida oʻz ichki qonun-qoidalari, nizom va belgilari bilan davom etib kelayotgan mustaqil anʼana ekanligi ochib berilgan. Dugoh (fors. — ikki joy, ikki parda, ikki payt) — 1) Oʻn ikki maqom tizimidagi shoʻʻba nomi. Dastlab butun ton (204 sent) oraligʻida joylashgan ikki tayanch pardali ohang ifodasi boʻlib, mazkur tizimdagi Husayniy, Hijoz kabi mukammal (7 pogʻonali) tovushqatorlar asosida rivojlantirilgan. Keyinchalik Husayniy maqomining tovushqatoriga singib ketishi natijasida "maqom" nomi bilan yuritila boshlangan; 2) Shashmaqom va Xorazm maqomlari turkumlarida 4- mustaqil maqom nomi. Fargʻona-Toshkent maqomlarida Dugoh Husayniy I—VII ashula yoʻllari, shuningdek, surnay D.i, Mushkiloti D. kabi cholgʻu yoʻllari mavjud.



Taronai dugoh husayni

Kelsang agar kulbam aro bosh ustuna bosh ustuna,
Jon birla ayğumdur sango ,bosh ustuna bosh ustuna.

Gar nafas otsang menga, qaxrila tosh ey nozanin,
Yuz shavq ila ayğum sango,bosh ustuna bosh ustuna.

Chin oshiq ersang qilmağil,sangu malomatdan hazar,
Balki degil shomu sabo,bosh ustuna bosh ustuna.

Doim dilafgor qilğuvsi ,vaslu visoling orzu,
Kel jonim olgil dilrabo bosh ustuna bosh ustuna.

«Dugoh husayniy» Farğona-Toshkent maqom yōllarining asosiy tarkibiga kiruvchi Bayot, Chorgoh, Shahnozi gulyor maqom yōllaridan biridir.

Ōzbek maqomlari orasida Dugoh maqomi ōziga hos va asosiy maqomlardan biri sifatida turkumlar ōrin olgan.Ōzining parda tizimi,ohangi,xarakteri hamda mavzusi bilan boshqa maqomlardan ajralib turadi . Farğona -Toshkent maqom yōliga mansub bōlgan Dugohlar, Shashmaqomdagi Dugohning tuzilishiga shaklan ōxshab ketgani bilan, ōziga hos tomonlari mavjudligi bilan ajralib turadi.

Odatda,har bir maqomning ōzini mavzusi va asoslanadigan pardalar tovushqatori mavjudligi xususida nazariy ma'lumotlar berilib ōtilgan.Ijrochilik amaliyotining maqomlarga hos bōlgan mukammal talqinlarida bu jihatlar ōzini namoyon etib turadi.Shunga kōra bunda Farğona -Toshkent maqom yōliga mansub bōlgan turkum «Dugoh husayniy» deb nomlanib kelingan. Avvalo buning negizida tovushqator parda tizimida Dugoh pardalariga nisbatan boshqa bir parda ishlatilganligi e'tirof



etiladi. Demak, Farğona -Toshkent maqom yōllaridagi Dugoh namunasini ōziga hoslik jihati ,unda husay pardasi qōllanilganligidadir. Dugoh ikkinchi pardasidan Husayniy pardasi kelganligi uchun «Dugoh Husayniy» nomini oldi. Shu ōrinda Dugoh pardasiga ham tōxtalib ōtsak. Dugoh iborasi fors tilidan olinib, tovush hosil qilinadigon ikki joy ,ya'ni parda. Butun ton oraligida ikki turli tovush hosil qilinadigan parda ma'nosida qōllaniladi. Shu bois asosiy pardalardan birini ōzgarishi ushbu maqomning shunday atalishiga asos bōladi.

Farğona -Toshkent maqom yōlidagi «Dugoh Husayniy «larni maqom shaklidagi bir tizim deb qarashimiz, uning. I- VII gacha bōlgan taronalarini ōzida aks ettirgaigidadir. Shashmaqom tarkibiga qiyoslasak ,Buxoro maqomlarida ijrochidan keng kōlamli ovoz hajmi talab etilganligi bois ansambl bōlib ijro qilinsa, Farğona -Toshkent maqom yōlidagi asarlar kichikroq hajmda yaratilgan bōlib, yakka tarzda ijro qilish imkoniyatini beradi. «Dugoh Husayniy « lar ham kichikroq ixcham shaklda yaratilgan gōzal va be takror asarlar sirasidan. Shuning uchun ham kōplab ustoz san' atkorlar ijro dasturlaridan joy olgan desak mubolağa bōlmaydi.» Dugoh Husayniy» lar ōziga hos asarlar turkumidir. Uning ōziga xosliklaridan biri shundaki, hamma Dugoh Husayniy lar bitta tovush tizimida ijro etiladi.

Hulosa.

Taronayi dugoh husayniy maqomi ōziga hos chuqur manoga ega asarlardan biridir. Dilafgor ğazallari orasida ōziga hosligi ,yoqimliligi va chuqur ma'noga ega ekanligi bilan ajralib turadi .Asar ning sōzlari mano jihatidan juda ōtkir va boy . Farğona -Toshkent maqom yōliga mansub bōlgan Taronai dugoh husayniy maqomi hozirgi kunda ham kōplab ustoz honandalar tomonidan ijro qilinib kelinmoqda va hozirgi kundagi yosh avlodlarga ham manzur bōlib, sevilib tinglanmoqda. Ğazaldagi sōzlar ma'nosidan kelib chiqib, soġinch , sabr , yaxshi kōrgan insonini intizorlik bilan kutmoqlik kabi his tuyġilarni ōz ichiga olgan. «Taronayi Dugoh Husayniy » asar har tomonlama mukammallikka intilgan, ōziga hos, inson qalbini zabt eta oladigan buyuk asardir.



Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) Rajabov I. Maqom masalasiga doir. T:, Ōzadabiynashr, 1963
- 2) Otanazar Matyoqubov, Maqomot T:, Musiqa nashriyoti 2004